

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“ IQTISODIYOT “ FAKULTETI

“MAKROIQTISODIY SIYOSAT VA PROGNOZLASH” KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 330.101541:336.1(575.1)

MADAMINOVA MAFTUNA BAHTIYOR QIZI

**O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA FISKAL SIYOSATNI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

70310103 – “Makroiqtisodiyot” mutahassisligi bo'yicha
magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


Ilmiy maslahatchi:

PhD, dotsent, Choriyev F.I.

Toshkent 2024

Dissertatsiya "Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash" kafedrasida 2024 yil ____ - sonli
" ____ " bayonnomasida dastlabki himoyadan o'tkazilgan.

Kafedra mudiri: Asqarova M.T.



21.05.2024

Imzo

sana

Ilmiy rahbar: Choriyev F.I.



21.05.2024

Imzo

sana

Magistr: Madaminova M.B.



21.05.2024

Imzo

sana

Dissertatsiya "Iqtisodiyot" fakultetining 2024-yil "21" "05"

No 3163 sonli bayonnomasi bilan ro'yhatga olingan.

Fakultet dekani _____



v.b. H.Sh.Rahimov

ANNATATSIYA

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar moliyaviy siyosatni, jumladan fiskal siyosatni iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirmoqda. Chunki, davlat fiskal siyosati davlat byudjet siyosatini bir qismi bo'lib hisoblanadi va soliq siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalar hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik. Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimizda olib borilayotgan soliq tizimi va byudjet sohasi faoliyatini va ular bilan ishlash qay darajada amalga oshirilayotganini statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik tahlil usullari yordamida o'rgandik. Undan tashqari xorijiy davlatlarni fiskal siyosatdagi tajribasi bilan ham tanishib chiqdik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida O'zbekiston iqtisodiyotida fiskal siyosatni takomillashtirish yo'llari bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: *Fiskal siyosat, byudjet-soliq siyosati, diskretsion, nodiskretsion fiskal siyosat, avtomatik stabilizatorlar, transfertlar, davlat byudjeti.*

Summary

The fundamental changes taking place in the economy of the Republic of Uzbekistan increase the importance of financial policy, including fiscal policy, in the sustainable development of the economy. Because the state fiscal policy is a part of the state budget policy and is closely related to the tax policy. Therefore, during the research, we carried out extensive work within the scope of the topic. Among other things, we have prepared a literature review after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local regulatory documents on the topic. In order to increase the practical significance of the scientific work, we studied the activities of the tax system and the budget sector in our country and the extent to which work with them is carried out using econometric analysis methods based on statistical data. In addition, we got acquainted with the experience of foreign countries in fiscal policy. Based on the studied and analyzed information, we have developed scientific and practical conclusions, proposals and recommendations on ways to improve the fiscal policy in the economy of Uzbekistan.

Key questions: *Fiscal policy, budget-tax policy, discretionary, non-discretionary fiscal policy, automatic stabilizers, transfers, state budget.*

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	7
Keltirilgan qisqartmalar	8
KIRISH	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	10
Tadqiqot maqsadi va vazifalari	11
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	11
Tadqiqot obyekti va predmeti	13
Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	13
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	14
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	16
1.1. Kirish	16
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	16
1.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	22
1.4. Xulosa	27
II BOB. METODOLOGIYA	28
2.1. Tadqiqot dizayni	29
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	29
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	30
2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	30
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	31
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	31
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	33
3.1. Mamlakatimizda davlat fiskal siyosatini amalga oshirishni iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga ta'sirini amaldagi holatini tahlili	33
3.2. Fiskal siyosat orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish hamda xorijiy fiskal siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy tahlili	39
3.3. Tahlillardan olingan natijalar sharhi	55
XULOSA	57
Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	57
Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	58
Tadqiqot cheklolari va kelgusi Tadqiqotlar uchun takliflar	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	61
ILOVALAR	64

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar fiskal siyosatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirmoqda. O'xshatish bo'sada fiskal siyosatni uy xo'jaliklaridagi eng kerakli uskuna cxillachiga qiyoslash mumkin, fiskal siyosatdagi fiskal vositalar va iqtisodiy dastaklar aynan yozning jaziraması-yu qishning qahratonida havoni muvozanatda ushlab uyga kerakli haroratni ta'minlab berish bilan ham ohangdir. Endilikda fiskal siyosatni jahon andozalariga to'g'ri keluvchi raqobatbardosh holatga yetkazishimiz davr talabi hisoblanadi. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'kidlanganidek, "Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlangan hamda fiskal barqarorlikka erishgan islohotlarni hozirgi davrda davlat moliyasi va ayniqsa byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlash muhim strategik vazifa biri bo'lib qolmoqda"¹.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiyalash bo'yicha har tomonlama chuqur o'ylangan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida milliy iqtisodiyotimizning barqaror va jadal rivojlanishi, aholining turmush darajasi izcxil oshib borishi uchun mustahkam hamda ishonchli poydevor yaratilganligini ta'kidlash lozim.

Shuni aytib o'tish joizki, Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichida ishlab chiqarishning qisqarishi, aholi turmush darajasining pasayishi, pulning qadrsizlanishi va boshqa qator ziddiyatli xususiy atlarga ega bo'lgan ijtimoiy- iqtisodiy inqiroz davriga to'g'ri keldi. Ma'lumki, bunday sharoitda asosiy og'irlik davlat byudjeti zimmasiga tushadi. Shu sababli fiskal siyosatni amalga oshirishda mohirlik talab qilinadi. O'sha davrlarda amalga oshirila boshlangan oqilona fiskal siyosat natijasida bugungi kunga kelib bir qator yutuqlarga erishdikki, shulardan biri mamlakatimizda byudjet ijrosini profitsit

¹ Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2019 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2020 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhimustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.